


“Toza shaxar” loyihasida yoshlar faollik ko'rsatmoqda

Xalqimizning ayniqsa yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini yanada kuchaytirish shu bilan birga, ona tabiatni kelajak avlodlarga asrab-avaylash hamda tabiatga aks ta'sir etuvchi holatlarning oldini olish maqsadida bugun Nukus shaxrida “Yangi O'zbekistonda erkin va obod yashaylik” shiori ostida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlari doirasida, “Toza shaxar” loyihasi amalga oshirilmoqda.

Image not found or type unknown



Tadbirda Respublikamizdagi korxona va tashkilotlar, eng e'tiborlisi esa yoshlарimiz faollik bilan qatnashmoqda.

Image not found or type unknown



Dastavval Nukus shaxri markazidagi, Yoshlar markazi binosi oldida bugungi tadbiriga start berildi. Shaxrimiz chiroyiga ko'rк bag'ishlovchi manzarali daraxt va gul ko'chatlarini ekish, ko'chalar va aholi gavjum joylarni chiqindilardan tozalash, daraxtlarga qush inlarini qurish ishlari uyushqoqlik bilan davom etmoqda.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown



Image not found or type unknown





Image not found or type unknown

Eslatib o'tamiz tadbir davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi I.V.Savitskiy nomidagi Davlat muzeyi oldida, xalqimiz ardog'idagi san'atkorlar ishtirokida gala kontsert bo'lib o'tadi.